



## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)




2019-yilning 1-iyun holatiga 18180 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,2 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3097 ta (22,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17194 tani tashkil etgan.



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-iyun holatiga)



2019-yilning 1-iyun holatiga 18180 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,2 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,4 % savdo, 16,8 % sanoat, 9,1 % qurilish, 8,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa hamda 26,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (4803 ta) savdo, (3049 ta) sanoat, (1660 ta) qurilish, (1488 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1164 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (665 ta) tashish va saqlash, (377 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, (236 ta) axborot va aloqa hamda (4738 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17194 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3097 ta (22,0 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

16,8 %



Sanoat

26,5 %



Savdo

9,1 %



Qurilish

1,3 %



Axborot va aloqa

6,3 %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

3,7 %



Tashish va saqlash

8,1 %




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

2,1 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


26,1 %



Boshqa turlari

# Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4045 ta), Urganch tumani (1855 ta), Xiva shahri (1591 ta), Xiva tumani (1492 ta) va Xonqa tumani (1359 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (665 ta), Shovot (842 ta) hamda Bog'ot (856 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.










# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-may oylarida 2895 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1977 taga ko'pdir.



2019-yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1051 ta), sanoat (625 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (344 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (236 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (23 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (38 ta) hamda tashish va saqlash (75 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-may oylarida

Savdo



1051

Tashish va saqlash



75

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



236

Qurilish



205

Sanoat



625

Axborot va aloqa



23

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



38

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



344


Boshqa turlari



298


## Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (547 ta), Urganch (385 ta), Xiva shahri (269 ta) va Xazorasp tumani (269 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangibozor (107 ta), Bog'ot (149 ta), Yangiariq (152 ta) hamda Shovot (176 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2017-2019-yillarning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni





# Tijorat korxonalari


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan  
tijorat korxonalar va  
tashkilotlar soni 14187  
tani tashkil qildi

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati  
cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy  
korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik  
jamiyati



Boshqalar



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar


2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 97 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga yoki 90,2 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

### 1-iyun holatiga

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %




Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 68 tasi qo'shma, 29 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar asosiy qismi Urganch shahrida 27 ta (jamidagi ulushi 27,7 %), Shovot 12 ta (12,4 %) va Urganch 10 tani (10,3 %) tumanlarida tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xonqa 4 ta (4,1 %), Yangiariq 4 ta (4,1 %), Gurlan 5 ta (5,2 %) hamda Xazorasp 5 tani (5,2 %) tumanlarida tashkil etgan.


# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



### 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 30 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga ko'paygan.



Turkmaniston rezidentlari kapitali ishtirokida – 14 ta, Rossiya Federatsiyasi - 5 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2 ta, Malayziya – 2 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 4 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 13 ta sanoat, 6 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4 ta savdo, 3 ta qurilish, va 4 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda



2019-yil 1-iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14097 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 25,8 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-may oylarida 2795 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2022 taga ko'pdir.



## 2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, %

• Eng katta ulushi

• Eng kichik ulushi



•Urganch shahri  
23,9 %



•Yangiariq  
6,1 %



•Urganch  
11,2 %



•Gurlan  
6,0 %



•Xiva shahri  
10,4 %




•Qo'shko'pir  
5,9 %



•Xiva  
9,2 %



•Bog'ot  
4,5 %



•Xonqa  
7,9 %



•Shovot  
4,3 %




•Xazorasp  
7,1 %



•Yangibozor  
3,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14097 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4533 ta (32,2 %) - savdo, 2869 ta (20,4 %) - sanoat, 1546 ta (11,0 %) - qurilish, 1375 ta (9,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1070 ta (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 622 ta (4,4 %) - tashish va saqlash, 282 ta (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 201 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1599 tasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1051 ta, sanoat 625 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 343 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 234 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 23 ta, axborot va aloqa 23 ta hamda tashish va saqlashda 75 ta tashkil etilgan.


## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (528 ta), Urganch tumani (377 ta), Xiva shahri (265 ta) va Xazorasp tumani (250 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangibozor (98 ta), Bog'ot (145 ta) hamda Yangiariq (149 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyun holatiga )




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan ● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan ● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,4 % yoki 552 tasi sanoat, 24,8 % yoki 501 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,5 % yoki 494 tasi savdo, 13,5 % yoki 273 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 19 tasi qurilish, 0,9 % yoki 19 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,5 % yoki 11 tasi tashish va saqlash hamda 6,8 % yoki 134 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


# Yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




## 2019-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Savdo




Sanoat




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish xizmatlari




Axborot va aloqa




Qurilish



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlari

# **Statistik registrlarni yuritish bo'limi.**

**Tel.:62-224-65-11**